

## **Bulung‘ur tuman mahalliy budjet parametrlarining 2024-yil 2-chorak ijrosi to‘g‘risida**

2024 yil 2-chorakda tuman mahalliy budgetining **xarajatlari** uchun 131,9 **mlrd.so‘mlik** mablag‘ rejalashtirilgan bo‘lib, shundan **119,9 mlrd.so‘mlik** xarajatlar amalga oshirilib **90,9 foizga** ijro etildi.

### **Jumladan,**

Umumiy ta’lim sohasida **8,6 mlrd.so‘mlik**, maktabgacha ta’lim sohasida **6,9 mlrd.so‘mlik**, sog‘liqni saqlash sohasida **48,1 mlrd.so‘mlik**, madaniyat sohasida **1,5 mlrd.so‘mlik**, obodonlashtirish sohasida **10,1 mlrd.so‘mlik**, davlat boshqaruva organlarini saqlash sohasida **14,5 mlrd.so‘mlik** va qishloq va suv xo‘jaligi sohasida **2,4 mlrd.so‘mlik** harajatlar amalga oshirildi.

Shuningdek, **qo‘srimcha manbalar hisobidan** shakllangan **mablag‘lar hisobidan**, xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli qarorlari asosida **5,5 mlrd.so‘m** mablag‘lar quyidagi maqsadlar uchun yo‘naltirildi:

Mahalliy budgetning qo‘srimcha manbalaridan yana bir turi – tuman hokimligi **zaxira jamg‘armasi** joriy davrda **0,8 mlrd.so‘m** mablag‘ xarajatlar uchun yo‘naltirildi.

Respublikamizda fuqarolarning budget jarayonida ishtirokini ta’minalash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, “Ochiq budget” hamda “Mening yo‘lim” dasturlarining joriy qilinishi Davlat budgeti mablag‘larining samarali ishlatalishida fuqarolarning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berdi.

### **2024-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar va bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi 1- mavsum hisoboti**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi “Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-sonli qarorining ijrosini ta’minalash maqsadida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida 2024-yil 1-yanvar holatiga qoldiq **1569,2** mln.so‘m, 2024-yil boshiga saqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga 30 foizi **2033,7** mln.so‘m, mening yo‘lim mablag‘lari hisobidan **4000,0** mln.so‘m, tuman mahalliy budgetining birinchi mavsum fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi uchun 5 foiz miqdorida ajratilgan mablag‘ **10 009,3** mln.so‘m, 2023-yil 1-2-mavsumda g‘olib bo‘lgan takliflar hamda bajarilgan loyihalardan ortgan mablag‘lar hisobidan **100,8** mln.so‘m mablag‘lar Xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlariga asosan o‘tkazilishi ta’minaldi. 2024-yil 1-aprel holatiga Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasida shakllangan mablag‘lar **17 713,0** mln.so‘mni tashkil etadi.

## **“Ochiq budjet” axborot portali 1-mavsumda 3 bosqichda amalga oshirildi:**

**1-bosqichda** fuqarolar tomonidan “Ochiq Budjet” axborot portaliga loyiha takliflari joylashtirildi. Bu jarayon joriy yilning 1-fevraldan 22-fevralgacha davom etdi. Fuqarolar tomonidan shu vaqt oralig‘ida **127** ta takliflar kelib tushdi.

**2-bosqichda** 22-fevraldan 16-martgacha davom etdi. Bunda ishchi guruh tomonidan takliflarning mezonga mosligi o‘rganildi. Bunda **115** ta takliflar ovoz berish uchun yakuniy bosqichga o‘tkazildi, qolgan **12** ta taklif mezon talablariga to‘g‘ri kelmaganligi va bir-birini takrorlaganligi sababli rad javobi berildi va taklif bergen fuqarolarning shaxsiy kabinetiga rad etishning sabablari to‘g‘risida xabarnomalar yuborildi.

**3-bosqich** **16**-martdan **4**-aprelgacha davom etdi. Bu jarayonda tumanimizning **83 038** mingdan ortiq fuqarolari o‘zlariga ma’qul bo‘lgan taklifga ovoz berib faol ishtirok etishdi.

Shuningdek “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasida shakllangan mablag‘lar hajmidan kelib chiqib eng ko‘p ovoz to‘plagan **13 ta taklif** **64 055 ta ovoz** to‘plab **17 713,0** mln so‘m bilan g‘olib deb topildi.